Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 56 No. 3
LINGUISTICS
https://philmatt.uzswlu.uz

Received: August 3, 2026
Accepted: September 24, 2026
Available online: September 25, 2026

https://doi.org/10.36078/987655598

Review article / Sharh maqola

THE LINGUISTIC NATURE OF ENANTIOSEMY (*AḌDĀD*) IN THE ARABIC LANGUAGE

Sirojiddin SOTVOLDIEV

Senior Teacher
Diplomat University
Tashkent, Uzbekistan
ORCID iD: 0000-0002-0666-0128
Email: sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com

ABSTRACT

This article examines the linguistic nature of *aḍdād*, one of the oldest and most controversial lexical-semantic phenomena in Arabic linguistics, in relation to polysemy and homonymy. The study aims to identify the linguistic properties of lexical items classified as aḍdād in classical Arabic linguistics, distinguish genuine antonymous lexemes from forms that are not directly associated with this phenomenon, and establish the boundaries of aḍdād in relation to enantiosemy, polysemy, and homonymy. The research draws on lexical items documented in works on aḍdād by classical Arab linguists and lexicographers, including Quṭrub, al-Aṣmaʿī, Ibn al-Sikkīt, Abū Ḥātim, Ibn al-Anbārī, and Abū al-Ṭayyib.

The study employs descriptive, componential, contextual-semantic, comparative-historical, etymological, and classification methods. The findings demonstrate that the materials grouped under the term aḍdād in classical sources do not constitute a linguistically homogeneous category. They include polysemous lexemes that have acquired opposing meanings through semantic development, homonyms with opposing meanings that have become formally identical as a result of phonetic change, and lexical items formed through derivational mechanisms.

Furthermore, the study identifies items classified as aḍdād as a result of textual misinterpretation, copying or reading errors, the conflation of different morphological forms, and insufficiently substantiated explanations. Accordingly, aḍdād is interpreted as a multilayered functional-semantic category encompassing semantic, phonetic, and derivational sources of meaning opposition.

The findings indicate that identifying genuine aḍdād requires a comprehensive assessment of diachronic origin, synchronic semantic function, contextual realization, morphological structure, and reliable textual evidence. The proposed approach provides a basis for reassessing the corpus of aḍdād in classical Arabic lexicography and clarifying its theoretical boundaries. These criteria also facilitate the re-examination of disputed lexical items in classical sources, the distinction between genuine and secondary forms of semantic opposition, and the development of a more consistent internal classification of the aḍdād phenomenon in Arabic.

Key words: aḍdād, enantiosemy, polysemy, homonymy, semantic opposition, semantic development, derivation, etymology, context, Arabic lexicography.

For citation:

Sotvoldiev, S. (2026). The linguistic nature of enantiosemy (*aḍdād*) in the Arabic language. *Philology Matters*, *56*(3), 71–86. https://doi.org/10.36078/987655598.

© Sirojiddin Sotvoldiev, 2026. Licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

ARAB TILIDA ENANTIOSEMIYA (*AḌDĀD*) HODISASINING LINGVISTIK TABIATI

Sirojiddin SOTVOLDIYEV

Katta o‘qituvchi
Diplomat University
Toshkent, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada arab tilshunosligining qadimiy va bahsli leksik-semantik hodisalaridan biri bo‘lgan *aḍdād* (qarama-qarshi ma’noli leksik birliklar) hodisasining lingvistik tabiati polisemiya va omonimiya hodisalari bilan o‘zaro munosabatda tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi mumtoz arab tilshunosligida aḍdād sifatida qayd etilgan birliklarning lingvistik xususiyatlarini aniqlash, haqiqiy qarama-qarshi ma’noli birliklarni mazkur hodisaga bevosita aloqador bo‘lmagan shakllardan ajratish hamda aḍdādning enantiosemiya, polisemiya va omonimiya bilan chegaralarini belgilashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida Qutrub, al-Asma’iy, Ibn as-Sikkit, Abu Hotim, Ibn al-Anbariy va Abu at-Tayyib kabi mumtoz arab tilshunoslari va lug‘atshunoslarining aḍdādga oid asarlarida qayd etilgan leksik birliklardan foydalanilgan.

Tadqiqotda deskriptiv, komponent, kontekstual-semantik, qiyosiy-tarixiy, etimologik va tasniflash metodlaridan foydalanilgan. Ular asosida erishilgan tahlil natijalari mumtoz manbalarda aḍdād nomi ostida jamlangan materiallar bir xil lingvistik tabiatga ega emasligini ko‘rsatdi. Ular orasida semantik taraqqiyot natijasida qarama-qarshi ma’nolarni kasb etgan polisemantik birliklar, fonetik o‘zgarish natijasida shaklan birxillashgan qarama-qarshi ma’noli omonimlar hamda derivatsion mexanizmlar orqali shakllangan birliklar mavjudligi aniqlangan.

Shuningdek, matnni noto‘g‘ri talqin qilish, ko‘chirish yoki o‘qish xatolari, turli morfologik shakllarning aralashtirilishi va yetarlicha asoslanmagan izohlar natijasida aḍdād qatoriga kiritilgan birliklar ajratildi. Aḍdād qarama-qarshi ma’nolilikning semantik, fonetik va derivatsion manbalarini birlashtiruvchi ko‘p qatlamli funksional-semantik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Haqiqiy aḍdādni aniqlashda diaxron kelib chiqish bilan bir qatorda sinxron semantik funksiya, kontekstual realizatsiya, morfologik struktura va ishonchli matniy dalillarni kompleks hisobga olish zarurligi xulosalandi.

Taklif etilgan yondashuv mumtoz arab leksikografiyasidagi aḍdād korpusini qayta baholash va uning nazariy chegaralarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur mezonlar mumtoz manbalardagi bahsli birliklarni qayta tekshirish, semantik qarama-qarshilikning haqiqiy va ikkilamchi ko‘rinishlarini farqlash hamda arab tilidagi aḍdād hodisasining ichki tasnifini yanada izchil shakllantirish imkoniyatini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: aḍdād, enantiosemiya, polisemiya, omonimiya, semantik qarama-qarshilik, semantik taraqqiyot, derivatsiya, etimologiya, kontekst, arab leksikografiyasi.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ЯВЛЕНИЯ ЭНАНТИОСЕМИИ (*AḌDĀD*) В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Сирожиддин СОТВОЛДИЕВ

Старший преподаватель
Diplomat University
Ташкент, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается лингвистическая природа *aḍdād* (лексические единицы с противоположными значениями) – одного из древнейших и наиболее дискуссионных лексико-семантических явлений арабского языкознания – в его взаимосвязи с полисемией и омонимией. Цель исследования заключается в выявлении лингвистических особенностей лексических единиц, классифицируемых как aḍdād в классическом арабском языкознании, разграничении собственно

единиц с противоположными значениями и форм, непосредственно не относящихся к данному явлению, а также в определении границ aḍdād по отношению к энантиосемии, полисемии и омонимии. Материалом исследования послужили лексические единицы, зафиксированные в трудах по проблеме aḍdād классических арабских лингвистов и лексикографов, в том числе Кутруба, аль-Асмаи, Ибн ас-Сиккита, Абу Хатима, Ибн аль-Анбари и Абу ат-Тайиба.

В исследовании применялись описательный, компонентный, контекстуально-семантический, сравнительно-исторический, этимологический и классификационный методы. Результаты анализа показали, что материал, объединённый в классических источниках термином aḍdād, не представляет собой однородную с лингвистической точки зрения категорию. Он включает полисемантичные лексемы, приобретшие противоположные значения в результате семантического развития; омонимы с противоположными значениями, формально совпавшие вследствие фонетических изменений; а также единицы, сформировавшиеся посредством деривационных механизмов.

Кроме того, были выявлены единицы, включённые в состав aḍdād вследствие ошибочной интерпретации текста, ошибок переписывания или чтения, смешения различных морфологических форм и недостаточно обоснованных толкований. В связи с этим aḍdād интерпретируется как многослойная функционально-семантическая категория, объединяющая семантические, фонетические и деривационные источники противоположности значений.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что выявление собственно aḍdād требует комплексного учёта диахронического происхождения, синхронной семантической функции, контекстуальной реализации, морфологической структуры и достоверных текстовых свидетельств. Предлагаемый подход создаёт основу для пересмотра корпуса aḍdād в классической арабской лексикографии и уточнения его теоретических границ. Разработанные критерии также позволяют повторно исследовать спорные лексические единицы в классических источниках, разграничивать собственно семантическую противоположность и её вторичные проявления, а также формировать более последовательную внутреннюю классификацию феномена aḍdād в арабском языке.

Ключевые слова: aḍdād, энантиосемия, полисемия, омонимия, семантическая противоположность, семантическое развитие, деривация, этимология, контекст, арабская лексикография.

KIRISH

Arab tilshunosligida leksik-semantik munosabatlarning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan *aḍdād* (qarama-qarshi ma’noli leksik birliklar) hodisasi uzoq tarixiy davr davomida tilshunoslar va lug‘atshunoslarning e’tiborini jalb qilib kelgan. *Aḍdād* termini *ḍidd* – “zid, qarama-qarshi” so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, an’anaviy arab tilshunosligida ayni bir leksik birlikning o‘zaro qarama-qarshi ma’nolarni ifodalashi bilan bog‘liq hodisani anglatadi. Mumtoz manbalarda *jawn* so‘zining “qora, to‘q” va “oq, yorqin”, *ġābir* birlikining “qoluvchi, qolgan” hamda “o‘tib ketgan, o‘tmishda qolgan”, *ša‘aba* fe’lining esa “ajratmoq” va “birlashtirmoq, tuzatmoq” ma’nolarida qo‘llanishi mazkur hodisaning xarakterli namunalari sifatida qayd etilgan [Qutrub, 1931-1932; Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963]. Aḍdād (enantiosemiya) arab tilshunosligi tarixida alohida leksikografik an’anani shakllantirgan. Qutrub, al-Asmaiy [al-Aṣma‘ī, 1913], Ibn as-Sikkit, Abu Hotim as-Sijistoniy [Abu Ḥātim al-Sijistānī, 1913], Ibn al-Anboriy va Abu at-Tayyib al-Lug‘aviy singari mumtoz arab olimlari hodisaga oid katta hajmdagi materialni to‘plaganlar. Al-Asmaiyning “Kitāb al-Aḍdād” asari 1913-yilgi nashrda 5–61-betlarni, Abu Hotim as-Sijistoniyning asari 71–157-betlarni, Ibn as-Sikkitniki esa 163–209-betlarni egallaydi [Haffner, 1913]. Ibn al-Anboriy va Abu at-Tayyib asarlarida material yanada kengaytirilgan

[Ibn al-Anbārī, 1960; Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963]. Shunga qaramay, aḍdād birliklarining mohiyati, miqdori, chegaralari va kelib chiqish sabablari yuzasidan yagona nazariy qarash shakllanmagan.

Aḍdād (enantiosemiya) haqidagi qarashlar faqat maxsus "Kitāb al-Aḍdād" tipidagi asarlar bilan chegaralanmagan. Keyingi mumtoz tilshunoslik manbalarida ham bu hodisa arab tilining muhim leksik-semantik xususiyatlaridan biri sifatida muhokama qilingan. Jumladan, as-Suyutiyning "al-Muzhir fī ʿulūm al-luġa wa anwāʿihā" asarida mazkur masala arab leksikologiyasining umumiy muammolari doirasida koʻrib chiqiladi [al-Suyūṭī, n.d.]. Bu holat aḍdād haqidagi ilmiy qarashlarning maxsus lugʻaviy toʻplamlardan umumiy arab lingvistik tafakkuriga koʻchganini koʻrsatadi.

XX asr arab tilshunosligida ham aḍdād muammosi izchil oʻrganildi. Abdulfattoh Badaviy mazkur hodisaning nazariy va leksikografik jihatlarini umumlashtirgan boʻlsa [Badawi, 1933], Husayn Muhammad mumtoz manbalardagi aḍdād materialini keng koʻlamda koʻrib chiqib, hodisaning tarixiy shakllanishi va tadqiq etilish an'anasiga e'tibor qaratgan [Muhammad, 1971; 1972]. Mazkur tadqiqotlar aḍdādning arab leksikologiyasidagi tasodifiy yoki periferik hodisa emas, balki mustaqil ilmiy muammo sifatida oʻrganilganini koʻrsatadi.

Mazkur muammoning dastlabki jihati "qarama-qarshi ma'no" bilan shunchaki "turli ma'no"ni farqlash masalasiga borib taqaladi. Abu at-Tayyib ḍidd tushunchasini muẖtalif – "farqli, turli" tushunchasidan ajratib, barcha qarama-qarshi ma'nolar bir-biridan farqli boʻlsa-da, barcha farqli ma'nolar oʻzaro qarama-qarshi boʻlavermasligini ta'kidlaydi [Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963]. Ushbu farqlash aḍdād korpusini baholashda muhimdir, chunki mumtoz manbalarda ayrim hollarda oʻzaro farqli, ammo haqiqiy antonimik munosabatga ega boʻlmagan ma'nolar ham ushbu kategoriya doirasiga kiritilgan.

Aḍdād (enantiosemiya)ning nazariy chegarasini belgilash polisemiya va omonimiya bilan munosabat masalasida yanada murakkablashadi. Omonimiya va polisemiya oʻrtasidagi chegara semantikaning murakkab muammolaridan biri boʻlib, bir xil shakldagi ma'nolar oʻrtasida tarixiy-semantik aloqaning mavjud yoki mavjud emasligi bunda muhim mezon sanaladi [Palmer, 1977]. Ayni bir soʻzning semantik taraqqiyoti natijasida oʻzaro zid ma'nolarga ega boʻlishi enantiosemik polisemiya bilan bogʻliq boʻlsa, tarixan boshqa-boshqa birliklarning fonetik oʻzgarish natijasida bir xil shaklga kelishi qarama-qarshi ma'noli omonimiyani yuzaga keltirishi mumkin [Bloomfield, 1948; Cohen, 1967].

Shu nuqtayi nazardan Gʻarb tilshunosligida ishlatiladigan "enantiosemiya" tushunchasi bilan mumtoz arab tilshunosligidagi aḍdād terminini mutlaq sinonim deb hisoblash masalasi bahslidir. D.Koen aḍdādni qarama-qarshi ma'noli omonimiya va lingvistik noaniqlik muammosi bilan bogʻliq holda maxsus tahlil qilgan [Cohen, 1967]. D.Jastis esa arab tilidagi shakl va ma'no munosabatlarini Yevropa tillaridagi parallel hodisalar bilan qiyoslab, qarama-qarshi ma'nolilikni kengroq semantik nuqtayi nazardan koʻrib chiqadi [Justice, 1987: 196-197]. Demak, aḍdādni faqat bir polisemantik leksema ichidagi qarama-qarshi ma'nolar bilan cheklash mumtoz

manbalarda qayd etilgan materiallarning bir qismini nazariy tasnifdan tashqarida qoldiradi.

Mazkur muammo XIX–XX asrlardagi tadqiqotlarda ham turlicha talqin qilingan. F.Gize aḍdād birliklarini semantik jarayonlar, jumladan, metonimiya va maʼnolar oʻrtasidagi tarixiy bogʻlanish orqali izohlashga harakat qilgan [Giese, 1894]. T.Nyoldeke esa arab dialektlari va boshqa somiy tillaridagi qiyosiy materialga tayangan holda koʻplab aḍdād birliklarining semantik va etimologik taraqqiyotini tushuntirgan [Nöldeke, 1910]. Uning tasnifida maʼno kengayishi, evfemizm, kakofemizm, kinoyaviy qoʻllanish va boshqa semantik-pragmatik mexanizmlar muhim oʻrin egallaydi.

Biroq aḍdād hodisasini faqat bitta universal sabab bilan tushuntirishga urinish ham yetarli natija bermaydi. R.Gordis qarama-qarshi maʼnolarning kelib chiqishida verbal tabu, kuchli evfemizm va kakofemizmning rolini alohida taʼkidlagan [Gordis, 1938]. Mazkur yondashuv ayrim birliklarni samarali izohlashi mumkin, biroq aḍdād korpusidagi fonetik, derivatsion va boshqa semantik mexanizmlarni yagona tabu nazariyasi bilan izohlash imkoniyati cheklangan.

Semantik oʻzgarish nazariyasi bu masalani kengroq izohlash imkonini beradi. Semantik taraqqiyot referentning oʻzgarishi, ijtimoiy va madaniy omillar, tillararo taʼsir, analogiya, ellipsis va leksik maʼnoning noaniqligi kabi koʻplab omillar taʼsirida yuzaga kelishi mumkin [Stern, 1964; Waldron, 1979]. S.Ulmann semantik oʻzgarishlarning katta qismini oʻxshashlik va yondoshlik hamda nom–maʼno munosabatlari asosida izohlaydi [Ullmann, 1957]. L.Blumfild ham soʻz maʼnosining nutq jamoasi va kontekst bilan bogʻliq ravishda oʻzgarib borishini qayd etadi [Bloomfield, 1948].

Masalaning yana bir muhim jihati diaxron va sinxron yondashuvlarning oʻzaro munosabatidir. Abu at-Tayyib qarama-qarshi maʼnolar ayni bir shakl orqali va fonetik oʻzgarishsiz ifodalanishi lozimligini mezon sifatida ilgari surgan [Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963]. T.Nyoldeke ham kelib chiqishi turlicha boʻlgan ayrim qarama-qarshi maʼnoli omonimlarni aḍdād tarkibidan chiqarishga intilgan [Nöldeke, 1910]. Biroq bu yondashuv hodisaning sinxron semantik funksiyasini toʻliq hisobga olmaydi. Agar tarixiy jihatdan boshqa-boshqa manbalardan kelgan maʼnolar muayyan davrda bir xil shaklda faol qoʻllanib, tinglovchi yoki oʻquvchi uchun qarama-qarshi semantik talqin imkoniyatini yuzaga keltirsa, bunday birlikning real kommunikativ funksiyasini eʼtibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning ilmiy muammosi mumtoz arab tilshunosligida aḍdād nomi ostida jamlangan heterogen materialni yagona diagnostik yondashuv asosida qayta baholash zarurati bilan belgilanadi. Maqolaning maqsadi arab tilidagi aḍdād hodisasining lingvistik tabiatini aniqlash hamda uning enantiosemiya, polisemiya va omonimiya hodisalari bilan munosabatini tahlil qilish asosida haqiqiy aḍdād birliklarini ajratish mezonlarini belgilashdan iborat. Tadqiqotning yangiligi aḍdādni baholashda diaxron etimologik mezon bilan bir qatorda uning sinxron semantik funksiyasi, kontekstual realizatsiyasi va kommunikativ noaniqlik hosil qilish imkoniyatini ham diagnostik mezon sifatida qoʻllashda namoyon boʻladi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqot arab tilidagi aḍdād hodisasining lingvistik tabiatini aniqlash, uni polisemiya va omonimiya hodisalaridan chegaralash hamda mumtoz manbalarda aḍdād sifatida qayd etilgan birliklarning ishonchlilik darajasini baholashga qaratilgan sifat xarakteridagi lingvistik tadqiqot sifatida tashkil etildi. Tadqiqot dizaynida deskriptiv, komponent, kontekstual-semantik, qiyosiy-tarixiy, etimologik va tasniflash metodlari o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida mumtoz arab tilshunosligida aḍdād sifatida qayd etilgan leksik birliklar olindi. Tadqiqot predmetini ushbu birliklarning semantik tuzilishi, qarama-qarshi ma’nolarning shakllanish mexanizmlari, polisemiya va omonimiya bilan munosabati hamda fonetik va derivatsion xususiyatlari tashkil etdi.

Empirik material aḍdādga bag‘ishlangan asosiy mumtoz manbalardan olindi. Ular qatoriga Qutrubning “Kitāb al-Aḍdād” asari [Qutrub, 1931-1932], al-Asmaiyning “Kitāb al-Aḍdād” asari [al-Aṣmaʿī, 1913], Abu Hotim as-Sijistoniyning “Kitāb al-Aḍdād” asari [Abu Ḥātim al-Sijistānī, 1913], Ibn as-Sikkitning “Kitāb al-Aḍdād” asari [Ibn al-Sikkīt, 1913], Ibn al-Anboriyning “Kitāb al-Aḍdād” asari [Ibn al-Anbārī, 1960] va Abu at-Tayyib al-Lug‘aviyning “al-Aḍdād fī kalām al-ʿArab” asari [Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963] kiritildi.

Materialni tanlashda mumtoz manbada birlikning aḍdād sifatida qayd etilganligi boshlang‘ich, biroq yakuniy bo‘lmagan mezon sifatida qabul qilindi. Al-Asmaiy nashrida 105 birlik raqamlangan bo‘lsa-da, ikki birlik takrorlanganligi sababli haqiqiy son 103 tani tashkil etadi. Ibn as-Sikkit korpusida esa alohida birlik sifatida noto‘g‘ri raqamlangan materiallarni chiqarib tashlaganda 92 ta birlik qoladi [al-Aṣmaʿī, 1913; Ibn al-Sikkīt, 1913]. Bunday tekstologik tekshiruv klassik ro‘yxatlarda keltirilgan miqdorlarni ham tanqidiy baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida *deskriptiv* tahlil amalga oshirildi. Har bir birlik uchun mumtoz manbalarda qayd etilgan qarama-qarshi ma’nolar, shakliy xususiyatlar va leksikografik izohlar yig‘ildi. Bir birlik bir necha manbada uchragan hollarda ma’lumotlar o‘zaro qiyoslandi. Bunday qiyoslash bir xil birlikning turli mualliflarda qayd etilishi uning leksikografik an’anadagi barqarorligini baholash imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda *komponent* tahlil metodi qo‘llanildi. Qarama-qarshi deb berilgan ma’nolar semantik komponentlarga ajratilib, ularning o‘zaro haqiqiy zidlik munosabatida turishi yoki shunchaki turli ma’nolarni ifodalashi tekshirildi. Bunda Abu at-Tayyib tomonidan ilgari surilgan ḍidd – “qarama-qarshi” va muḫtalif – “turli” tushunchalari o‘rtasidagi farq metodologik jihatdan muhim hisoblandi [Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963].

Uchinchi bosqichda *kontekstual-semantik* tahlil amalga oshirildi. Leksikografik qaydlar imkon qadar mumtoz she’riy va nasriy dalillar bilan tekshirildi. Bunda matniy dalil faqat birlikning ma’lum ma’noda mavjudligini tasdiqlovchi vosita emas, balki ayni kontekstda qaysi ma’no reallashganini aniqlovchi semantik indikator sifatida qo‘llanildi. Ibn al-Anboriy ham qarama-qarshi ma’noli birliklarda kontekst ma’noni aniqlashda hal qiluvchi vazifa bajarishini ta’kidlagan [Ibn al-Anbārī, 1960].

To‘rtinchi bosqichda *etimologik* va *qiyosiy-tarixiy* tahlil qo‘llanildi. Bir xil

shaklda namoyon bo‘lgan qarama-qarshi ma’nolarning bitta leksik birlikning tarixiy semantik taraqqiyoti natijasi yoki tarixan turli birliklarning fonetik yaqinlashuvi mahsuli ekanligi tekshirildi. Omonimiya va polisemiya o‘rtasidagi farqni aniqlashda tarixiy-semantik aloqa asosiy mezonlardan biri sifatida qaraldi [Palmer, 1977]. Fonetik o‘zgarish natijasida boshqa-boshqa shakllarning bir xil ko‘rinishga kelishi esa alohida omonimik mexanizm sifatida baholandi [Bloomfield, 1948: 146].

Beshinchi bosqichda *derivatsion* tahlil qo‘llanildi. Arab tilidagi fe’l va sifat qoliplarining faol-majhul, pozitiv-privativ yoki boshqa qarama-qarshi semantik funksiyalarni ifodalashi tahlil qilindi. Arab tilidagi derivatsion modellarning shakl va ma’no munosabatlari bu jihatdan alohida ahamiyatga ega [Macdonald, 1963; Wright, 1979]. Qiyosiy somiy morfologiyasi materiallari ham ayrim faol va majhul funksiyalarning tarixiy aloqasini tasdiqlaydi [Moscati et al., 1964: 146].

Oltinchi bosqichda *tasniflash* metodi yordamida materiallar ularning yuzaga kelish mexanizmiga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Asosiy guruhlar semantik taraqqiyot natijasida shakllangan birliklar, fonetik omillar natijasida omonimlashgan birliklar va derivatsion mexanizmlar asosidagi qarama-qarshi ma’noli shakllardan iborat bo‘ldi. Semantik o‘zgarishlarni izohlashda G.Stern, R.Woldron, S.Ulmann va L.Blumfildning semantik taraqqiyotga doir qarashlari nazariy asos sifatida qo‘llanildi [Stern, 1964; Waldron, 1979; Ullmann, 1957; Bloomfield, 1948].

Materiallarning ishonchliligini baholashda salbiy diagnostik mezonlar ham qo‘llanildi: qarama-qarshi ma’nolardan biri ishonchli tasdiqlanmagan; qarama-qarshilik noto‘g‘ri o‘qish yoki ko‘chirish natijasida yuzaga kelgan; turli predloglar ta’siri bilan hosil bo‘lgan; turli morfologik shakllarga mansub bo‘lgan yoki fonetik o‘zgarish orqali kelib chiqishi boshqa-boshqa birliklar bir xil ko‘rinishga kelgan holatlar alohida tekshirildi. Bunday tanqidiy mezonlardan T.Nyoldeke ham o‘z tadqiqotida foydalangan [Nöldeke, 1910].

Biroq mazkur tadqiqotda diaxron mezonning o‘zi yetarli deb hisoblanmadi. Agar tarixiy jihatdan boshqa manbalardan kelib chiqqan ikki qarama-qarshi ma’no ma’lum sinxron bosqichda bir xil shaklda mavjud bo‘lib, til foydalanuvchisi uchun real semantik ikki ma’nolilikni yuzaga keltirsa, bunday holatning kommunikativ funksiyasi ham tahlilga kiritildi. Natijalarning ishonchliligini oshirish maqsadida leksikografik ma’lumotlar imkon qadar bir nechta mumtoz manba, tarixiy lug‘at va matniy shohid bilan solishtirildi; xususan, “Lisān al-ʿArab” [Ibn Manẓūr, 1981], “Muʿjam Maqāyīs al-Luġa” [Ibn Fāris, 1969] va “Lane” lug‘ati [Lane, 1863/1984] yordamchi tekshiruv manbalari sifatida qo‘llanildi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari mumtoz arab leksikografiyasida aḍdād nomi ostida jamlangan materiallar lingvistik jihatdan bir xil tabiatga ega emasligini ko‘rsatdi. Bir xil shakldagi qarama-qarshi ma’nolarning yuzaga kelishi kamida uch asosiy mexanizm – semantik taraqqiyot, omonim va derivatsion shakllanish bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, mumtoz korpusda matnni noto‘g‘ri talqin qilish, ko‘chirish xatosi yoki yetarlicha asoslanmagan semantik izohlar natijasida aḍdād sifatida qayd etilgan

birliklar ham mavjud.

Birinchi asosiy guruhni semantik taraqqiyot natijasida qarama-qarshi ma'nolarni kasb etgan birliklar tashkil etdi. Bunday holatda tarixan bitta leksik birlikning ma'nolari taraqqiyot davomida qarama-qarshi semantik qutblarga ajralgan. Abu at-Tayyib materialining qayta tasnifida bayn, basl, bāʿa, jawn, ṣadaf/sudfah, masjūr, sharā, ṣarīm, ġābir, qurʾ, qāniʿ, hājid kabi birliklar mazkur sinfga kiritiladi.

Jawn mazkur turga xarakterli misollardan biridir. Mumtoz qo'llanishlarda so'z "oq" va "qora, to'q" ma'nolarini ifodalaydi. Al-Farazdaqning o'z she'riyati doirasida ham jawn'ning har ikki rang ma'nosida qo'llanishi qayd etilgan. Bu holat qarama-qarshi ma'nolarning faqat ikki xil dialektga mexanik taqsimlanishi bilan izohlanishi yetarli emasligini ko'rsatadi [Ibn al-Anbārī, 1960; al-Farazdaq, 1960].

Ġābir ham semantik qarama-qarshilikning muhim namunasi sifatida aniqlandi. Ushbu birlik mumtoz materialda "qoluvchi, ortda qolgan" hamda "o'tib ketgan" ma'nolarini ifodalaydi. Al-Ajjoj baytida ʿābir – "o'tuvchi" va ġābir – "qiluvchi" o'zaro qarama-qarshi qo'yilgan; boshqa leksikografik dalillar esa ġābirning "o'tib ketgan" ma'nosini ham tasdiqlaydi [Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963; Ibn Manẓūr, 1981]. Shu sababli mazkur birlikdagi qarama-qarshilikni oddiy matn xatosi sifatida izohlash yetarli emas.

Semantik turdagi birliklar tahlili sinxron va diaxron baholash o'rtasidagi farqni ham aniqladi. Ayrim qarama-qarshi ma'nolar tarixiy jihatdan umumiy, dastlab qarama-qarshi bo'lmagan semantik asosdan rivojlangan bo'lishi mumkin. Biroq muayyan sinxron bosqichda bir xil shakl ikki zid ma'noni ifodalasa, til foydalanuvchisi uchun u real semantik qarama-qarshilikni hosil qiladi. Shu sababli tarixiy izohning mavjudligi bunday birliklarning sinxron aḍdād xususiyatini avtomatik ravishda bekor qilmaydi.

Ikkinchi asosiy guruhni fonetik jarayonlar natijasida yuzaga kelgan qarama-qarshi ma'noli omonimlar tashkil etdi. Bunda dastlab boshqa-boshqa bo'lgan ikki lingvistik shakl fonetik modifikatsiya yoki tarixiy fonetik o'zgarish natijasida bir xil shaklga keladi. Natijada oddiy omonimiyadan farqli ravishda, bir xil shakl orqali aynan o'zaro qarama-qarshi ma'nolar ifodalanadi [Bloomfield, 1948: 146].

Materialda bunday holatlarning aniq namunalari qayd etilgan. Masalan, *mūdin* shakli bir kontekstda "halok bo'lgan", boshqa kontekstda "to'liq qurollangan, kuchli" ma'nosini anglatadi. Tahlil bu ikki ma'no tarixan ikki xil shakldan kelib chiqqanini ko'rsatadi: "halok bo'lgan" ma'nosidagi shakl *awdā* fe'li bilan bog'liq bo'lsa, "kuchli, qurollangan" ma'nosidagi birlik fonetik o'zgarishga uchragan boshqa shaklning natijasidir [Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963]. Natijada fonetik aḍdādning semantik enantiosemiyadan prinsipial farqi aniqlandi.

Uchinchi asosiy guruhni derivatsion mexanizmlar natijasida shakllangan qarama-qarshi ma'noli birliklar tashkil etdi. Arab tilidagi ayrim morfologik modellar o'z tabiatiga ko'ra bir necha semantik funksiyani bajarishi mumkin. Bu holat ba'zan ayni bir derivatsion shaklning faol va majhul, pozitiv va privativ yoki boshqa qarama-qarshi qiymatlarni ifodalashiga olib keladi [Macdonald, 1963; Wright, 1979]. R.Kamol ham aḍdād masalasini somiy tillar fonida ko'rib chiqib, struktur omillarning ahamiyatini ta'kidlaydi [Kamol, 1972: 80].

Abu at-Tayyib materiali asosidagi qayta tasnifda amīn, aškā, šaʿaba, ṣarīḫ, taṣaddaqa, mutaẓallim, ġarīm, faziʿa, qāniʿ, kariyy kabi birliklar ayni bir derivatsion shakl doirasidagi qarama-qarshi derivatsion maʾnolar guruhiga kiritiladi. Bundan tashqari, atima/taʾattama, tariba/atraba, ṭalla/aṭalla, safaha/asfaha, afraṭa/farraṭa singari juftliklar turli derivatsion shakllarning qarama-qarshi maʾnolarni ifodalashi bilan bogʻliq alohida sinfni tashkil etadi.

Tahlil natijasida mumtoz korpusdagi barcha birliklarni haqiqiy aḍdād deb qabul qilish mumkin emasligi ham aniqlandi. Birinchi navbatda matnni notoʻgʻri talqin qilish natijasida aḍdād deb qabul qilingan birliklar ajratildi. Bunday birliklarda daʾvo qilingan qarama-qarshilik leksik birlikning real semantik tizimiga emas, muayyan kontekstning notoʻgʻri talqiniga asoslanadi. Ikkinchi turdagi ishonchsiz material koʻchirish yoki oʻqish xatolari bilan bogʻliq. Uchinchi holatda esa birlikka qarama-qarshi maʾno sunʾiy yoki majburiy semantik talqin orqali yuklangan.

Shu bilan birga, matniy shohidning mavjud emasligini avtomatik rad etish mezoni sifatida qoʻllash mumkin emasligi aniqlandi. Mumtoz aḍdād asarlarida maʾlum maʾno uchun shohid keltirilmagan boʻlsa-da, boshqa sheʾriy, nasriy yoki leksikografik manbalarda mazkur maʾnoning real qoʻllanishi topilishi mumkin. Shuning uchun birlikning ishonchliligi matniy dalil, leksikografik anʾana, fonetik imkoniyat, derivatsion qonuniyat va semantik analogiyalar yigʻindisi asosida baholandi.

Natijalar mumtoz aḍdād materialining manbalararo munosabatini ham koʻrsatdi. Masalan, al-Asmaiy va Ibn as-Sikkit asarlari tarkib, tartib va izohlash usuli jihatidan nihoyatda yaqin boʻlib, Ibn as-Sikkit nashri al-Asmaiy materialining qayta rivoyat qilingan shakli boʻlishi mumkinligi nashr sharhlarida ham qayd etilgan [Ibn al-Sikkīt, 1913: 163]. Bu holat bir birlikning ikki manbada qayd etilganligini har doim ikki mustaqil dalil sifatida hisoblash mumkin emasligini koʻrsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot uch asosiy natijani aniqladi. Birinchidan, aḍdād korpusi lingvistik jihatdan heterogen boʻlib, semantik polisemiya, omofon va derivatsion qarama-qarshilikni qamrab oladi. Ikkinchidan, mumtoz roʻyxatlardagi muyyan miqdordagi birliklar tekstologik yoki semantik tanqidga bardosh bermaydi va haqiqiy aḍdād korpusidan chiqarilishi lozim. Uchinchidan, haqiqiy aḍdādni aniqlash uchun diaxron kelib chiqish, sinxron semantik funksiya, kontekst, morfologik struktura va matniy dalillarni birgalikda hisobga olish zarur.

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari arab tilidagi aḍdād hodisasini yagona va bir xil tabiatdagi leksik-semantik kategoriya sifatida talqin qilish yetarli emasligini koʻrsatdi. Mumtoz arab filologiyasida bir shaklning qarama-qarshi maʾnolarni ifodalashi umumiy aḍdād termini ostida birlashtirilgan boʻlsa-da, tahlil ushbu birliklarning shakllanish mexanizmlari semantik, fonetik va derivatsion jihatdan farqlanishini koʻrsatadi. Mazkur holat aḍdādni nafaqat enantiosemiya, nafaqat omonimiya bilan toʻliq tenglashtirish mumkinligini anglatadi.

Mumtoz arab tilshunoslarining qarashlari hodisaning nazariy chegaralari qadimdan munozarali boʻlganini koʻrsatadi. Ibn al-Anboriy aḍdād tufayli yuzaga

kelishi mumkin bo‘lgan semantik noaniqlikni inkor qilmaydi, biroq ma’noni aniqlashda kontekstning hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi [Ibn al-Anbārī, 1960]. Uning fikriga ko‘ra, qarama-qarshi ikki ma’nodan biri dastlabki, ikkinchisi keyingi semantik taraqqiyot mahsuli bo‘lishi yoki ma’nolar turli dialektlarda rivojlangan bo‘lishi mumkin.

Ibn al-Anboriy materialini keyingi davrda qayta tasniflashga qaratilgan tadqiqotlar ham mumtoz aḍdād korpusining bir xil tabiatga ega emasligini tasdiqlaydi. Xususan, Jabbur Ibn al-Anboriyning “Kitāb al-Aḍdād” asaridagi birliklarni tasniflash va ularning shakllanish sabablarini tushuntirishga urinib, turli lingvistik omillarning roliga e’tibor qaratgan [Jabbour, 1967]. Bu yondashuv mumtoz ro‘yxatlardagi barcha birliklarni yagona semantik mexanizm mahsuli sifatida talqin qilish mumkin emasligi haqidagi mazkur tadqiqot natijalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Abu at-Tayyib hodisani chegaralashda ancha qat’iy mezon ilgari suradi. U “qarama-qarshi ma’no” bilan shunchaki “farqli ma’no”ni ajratib, ikki ma’no ayni bir shaklda va fonetik o‘zgarishsiz ifodalanishi kerakligini ta’kidlaydi [Abu al-Ṭayyib al-Lughaw, 1963]. Ushbu mezon mumtoz ro‘yxatlarga kiritilgan ko‘plab shubhali birliklarni chiqarib tashlashga xizmat qilishi bilan muhim. Shu bilan birga, Abu at-Tayyibning o‘z asarida ham o‘zaro zid bo‘lmagan ayrim ma’nolar aḍdād qatorida saqlanib qolgan. Bu nazariy mezon bilan amaliy leksikografik tasnif o‘rtasida to‘liq izchillik bo‘lmaganini ko‘rsatadi.

XIX asr oxiridagi F.Gize tadqiqoti aḍdād (enantiosemiya) korpusini keskin qisqartirishga urinish bilan ajralib turadi. U qadimgi arab she’riyatida ishonchli matniy dalil bilan tasdiqlangan atigi 22 ta birlikni haqiqiy aḍdād sifatida tan olgan [Giese, 1894]. Shunga qaramay, olimning metonimiya, semantik bog‘lanish va ma’no zanjirlanishi kabi mexanizmlar orqali qarama-qarshi ma’nolarni izohlashga urinishi keyingi tarixiy-semantik tadqiqotlar uchun muhim metodologik qadam bo‘ldi.

T.Nyoldeke bu yondashuvni yanada tizimli tarzda rivojlantirib, arab dialektlari va boshqa somiy tillaridagi qiyosiy materialdan foydalangan [Nöldeke, 1910]. U qarama-qarshi ma’nosi ishonchli tasdiqlanmagan birliklar, matn xatolari bilan bog‘liq holatlar, turli predloglar ta’sirida ma’nosi o‘zgargan fe’llar, alohida derivatsion shakllar va fonetik o‘zgarish natijasida shaklan bir xillashgan tarixan boshqa-boshqa birliklarni haqiqiy aḍdād qatoridan chiqarishga moyil [Nöldeke, 1910]. Uning bunday kritik yondashuvi klassik aḍdād korpusini qayta tekshirish zaruratini asoslashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, T.Nyoldekening qarama-qarshi ma’noli omonimlarni hodisadan chiqarib tashlashga moyilligi muayyan nazariy cheklovga ega. Agar masala faqat diaxron kelib chiqish nuqtayi nazaridan baholansa, bunday yondashuv asosli ko‘rinadi. Biroq sinxron nuqtayi nazardan tarixan boshqa manbalardan kelgan ikki ma’no bir xil shaklda faol mavjud bo‘lib, tinglovchi yoki o‘quvchida qarama-qarshi semantik talqin imkoniyatini yuzaga keltirishi mumkin.

R.Gordis aḍdādning ayrim turlarini antropologik-pragmatik omillar bilan izohlashga uringan. U qarama-qarshi ma’nolarning yuzaga kelishida verbal tabu, “kuchli evfemizm” va “oddiy kakofemizm”ni asosiy mexanizmlar sifatida ko‘rsatadi [Gordis, 1938]. Masalan, xavfli yoki yoqimsiz tushunchani ijobiy nom bilan ifodalash yoki go‘zal narsani yomon ko‘zdan asrash maqsadida salbiy so‘z bilan atash natijasida

dastlab pragmatik xususiyatga ega bo‘lgan qo‘llanish keyinchalik leksiklashishi mumkin.

Šawhāʾ birligi bunday semantik-pragmatik taraqqiyotning xarakterli namunasi hisoblanadi. Uning “xunuk” ma’nosidan “go‘zal” ma’nosining rivojlanishi yomon ko‘zdan saqlanish maqsadidagi antifrazistik qo‘llanish bilan izohlanadi [Gordis, 1938; Nöldeke, 1910]. Mazkur mexanizm *baṣīr* birligida ham kuzatiladi. So‘zning asosiy ma’nosi “ko‘ruvchi” bo‘lsa-da, klassik qo‘llanishlarda u “ko‘r” ma’nosida ham qayd etilgan. D.Markus akkad tilida ko‘r kishini ifodalash uchun asl mazmuni “ko‘zi ochiq” va “o‘tkir ko‘zli” tushunchalariga yaqin bo‘lgan evfemistik birliklarning ishlatilishini qayd etadi [Marcus, 1980]. Bu parallel qarama-qarshi ma’noning tabu va evfemistik-antifrazistik qo‘llanish asosida leksiklashishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Biroq R.Gordisning tabu nazariyasi aḍdād korpusining barcha turlarini tushuntira olmaydi. Fonetik omonimlashuv, derivatsion sinkretizm yoki tarixiy semantik siljish bilan bog‘liq birliklarni verbal tabu bilan izohlash metodologik jihatdan yetarli emas. Shu sababli aḍdādning barcha turlari uchun yagona universal sabab izlashdan ko‘ra, turli mexanizmlarni bir-biridan ajratish ilmiy jihatdan samaraliroq hisoblanadi.

D.Koenning qarama-qarshi ma’noli omonimiya va lingvistik noaniqlik haqidagi yondashuvi ushbu masalada alohida ahamiyatga ega. U aḍdād hodisasini omonimiya va kommunikativ ikki ma’nolilik bilan bevosita bog‘liq holda tahlil qiladi [Cohen, 1967]. Bu qarash mazkur maqolaning asosiy natijalaridan biri bilan uyg‘un: qarama-qarshi ma’nolilik faqat polisemantik semantik taraqqiyot mahsuli emas, ayrim hollarda omonimik shakllanish natijasi ham bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtada aḍdād va enantiosemiya o‘rtasidagi munosabatni aniqroq belgilash mumkin. Enantiosemiya, tor ma’noda, ayni bir polisemantik leksemaning qarama-qarshi ma’nolarni rivojlantirishini anglatadi. Aḍdād esa mumtoz arab an’anasida bundan kengroq materialni qamrab oladi: semantik taraqqiyot natijasidagi enantiosemik birliklar bilan birga fonetik omonimlar va ayrim derivatsion qarama-qarshiliklar ham shu termin ostida jamlangan.

Natijalar polisemiya va omonimiya o‘rtasidagi chegaraning ham mutlaq emasligini ko‘rsatadi. F.R. Palmer bir xil shakldagi ma’nolarning tarixiy bog‘langan yoki bog‘lanmaganligini polisemiya va omonimiyani farqlashda muhim mezon sifatida ko‘rsatadi [Palmer, 1977]. Biroq tarixiy tahlil bilan sinxron tajriba bir xil natija bermasligi mumkin. Til foydalanuvchisi uchun ikki qarama-qarshi ma’no bir xil shaklda namoyon bo‘lsa, ularning etimologik kelib chiqishidan qat’i nazar, kommunikativ ikki ma’nolilik yuzaga keladi.

Semantik aḍdādning yuzaga kelishi umumiy semantik o‘zgarish qonuniyatlari bilan ham bog‘liq. So‘z ma’nosining tarixiy taraqqiyoti davomida dastlab o‘zaro qarama-qarshi bo‘lmagan semantik variantlar asta-sekin ikki qutbga ajralishi mumkin. Bunda ma’no kengayishi va torayishi, metaforik va metonimik ko‘chish, emotsional bahoning o‘zgarishi, evfemizm, kakofemizm hamda ironik qo‘llanish kabi omillar ishtirok etadi. Bu jihatdan S.Ulmannning semantik o‘zgarishlarga oid qarashlari aḍdādning semantik turini izohlash uchun muhim nazariy asos beradi [Ullmann, 1957]. R.A. Voldronning ma’no siljishi haqidagi modeli ham ma’no strukturasi

ichidagi belgilar nisbatining oʻzgarishini koʻrsatadi [Waldron, 1979].

Derivatsion aḍdād natijalari ham hodisaning enantiosemiyadan kengroq ekanini tasdiqlaydi. Arab tilidagi ayrim derivatsion qoliplar faol va majhul yoki boshqa qarama-qarshi semantik funksiyalarni ifodalashi mumkin. R.Kamol bu masalani somiy tillar fonida maxsus koʻrib chiqadi [Kamol, 1972: 80], qiyosiy somiy morfologiyasi esa ayrim shakllarning faol va majhul funksiyalari oʻrtasidagi tarixiy munosabatni koʻrsatadi [Moscati et al., 1964: 146]. Bu hodisani oddiy polisemantik enantiosemiya bilan tenglashtirish toʻgʻri emas, chunki qarama-qarshilik struktur-morfologik omil bilan bogʻliq.

Shuningdek, klassik korpusni tanqidiy qayta koʻrib chiqish zarurligi natijalarning muhim jihatlaridan biridir. Qutrub, Ibn al-Anboriy va Abu at-Tayyib katta hajmdagi birliklarni aḍdād sifatida jamlagan boʻlsalar-da, keyingi tahlil ularning hammasi haqiqiy qarama-qarshi maʼnoli birlik emasligini koʻrsatadi. Shu bois mumtoz manbaga kiritilganlikning oʻzi ilmiy ishonchlilikning yetarli mezoni emas. A.Badaviy [Badawi, 1933], M.Husayn [Husayn, 1971; 1972] va S.Jabbur [Jabbour, 1967] singari keyingi tadqiqotchilarning ishlari ham aḍdād korpusini qayta tasniflash va nazariy chegaralarni aniqlash zaruratini koʻrsatadi.

Shu asosda mazkur tadqiqotda haqiqiy aḍdādni aniqlash uchun kompleks mezon taklif etiladi. Birinchidan, ikki maʼno oʻrtasida real semantik qarama-qarshilik boʻlishi kerak; oddiy farqlilik yetarli emas. Ikkinchidan, maʼnolarning real qoʻllanishi matniy yoki ishonchli leksikografik dalil bilan tasdiqlanishi lozim. Uchinchidan, birlikning morfologik va fonetik strukturasi tekshirilishi zarur. Toʻrtinchidan, diaxron kelib chiqish bilan sinxron semantik funksiya parallel ravishda hisobga olinishi kerak. Beshinchidan, qarama-qarshi maʼnolarning qaysi mexanizm orqali – semantik, fonetik yoki derivatsion – shakllangani alohida belgilanishi lozim.

Maqolaning asosiy ilmiy yangiligi aḍdādni faqat polisemantik enantiosemiya sifatida emas, balki qarama-qarshi maʼnolilikning turli lingvistik manbalarini birlashtiruvchi koʻp qatlamli funksional-semantik kategoriya sifatida talqin qilishdan iborat. Bunda enantiosemiya aḍdādning muhim ichki turi sifatida tan olinadi, biroq fonetik omonimiya va derivatsion qarama-qarshilik undan tashqarida alohida struktur turlar sifatida ajratiladi. Ushbu yondashuvning nazariy ahamiyati aḍdād, enantiosemiya, polisemiya va omonimiya tushunchalari oʻrtasidagi chegaralarni aniqlashtirish bilan bogʻliq; amaliy jihatdan esa u mumtoz arab lugʻatlari va maxsus aḍdād asarlaridagi birliklarni qayta baholash imkonini beradi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, klassik aḍdād korpusi juda katta boʻlgani sababli barcha birliklarni bitta maqolada individual tarzda batafsil tahlil qilish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli mazkur tadqiqotda hodisaning umumiy lingvistik tabiati, diagnostik mezonlari va asosiy struktur turlari markazga qoʻyildi. Keyingi tadqiqotlarda semantik, fonetik va derivatsion aḍdād sinflarining har birini mustaqil korpus asosida oʻrganish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Arab tilidagi aḍdād hodisasining lingvistik tabiati yuzasidan olib borilgan tahlil mazkur hodisani faqat bir leksemaning ikki qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lishi bilan cheklash mumkin emasligini ko‘rsatdi. Mumtoz arab leksikografiyasida aḍdād nomi ostida birlashtirilgan birliklar semantik kelib chiqishi, struktur tuzilishi va shakllanish mexanizmlari jihatidan heterogen xususiyatga ega.

Tadqiqot natijasida aḍdād birliklarining uch asosiy lingvistik manbayi aniqlandi. Birinchi guruhni bitta leksik birlikning tarixiy semantik taraqqiyoti natijasida o‘zaro qarama-qarshi ma’nolarni rivojlantirgan birliklar tashkil etadi. Ikkinchi guruhda qarama-qarshi ma’nolilik tarixan boshqa-boshqa birliklarning fonetik jihatdan bir xil shaklga kelishi natijasida yuzaga keladi. Uchinchi guruh esa arab tilining derivatsion tizimidagi semantik sinkretizm natijasida hosil bo‘lib, ayni bir yoki o‘zaro bog‘liq morfologik shakllarning qarama-qarshi semantik funksiyalarni ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotlarni o‘rganish natijasida aḍdād va enantiosemiya tushunchalarini to‘liq tenglashtirish bahsli masala ekanligi ko‘rinadi. Enantiosemiya aḍdādning muhim tarkibiy turi bo‘lsa-da, mumtoz arab tilshunosligida ushbu kategoriya qarama-qarshi ma’noli omonimlar hamda derivatsion qarama-qarshiliklarni ham qamrab oladi. Shu bois aḍdādni qarama-qarshi ma’nolilikning turli lingvistik manbalarini birlashtiruvchi ko‘p qatlamli funksional-semantik kategoriya sifatida talqin qilish nazariy jihatdan asosliroqdir.

Tahlil mumtoz manbalarda aḍdād sifatida qayd etilgan barcha birliklarning ham bir xil darajada ishonchli emasligini ko‘rsatdi. Ayrim holatlarda semantik qarama-qarshilik matnning noto‘g‘ri talqin qilinishi, ko‘chirish yoki o‘qish xatosi, turli morfologik shakllarning aralashtirilishi yoxud yetarlicha asoslanmagan leksikografik izoh natijasida yuzaga kelgan. Shuning uchun mumtoz manbaga kiritilganlikning o‘zi birlikni haqiqiy aḍdād sifatida baholash uchun yetarli mezon bo‘la olmaydi.

Haqiqiy aḍdādni aniqlashda bir necha diagnostik mezonni birgalikda qo‘llash zarur: ikki ma’no o‘rtasida real semantik qarama-qarshilikning mavjudligi, qarama-qarshi ma’nolarning ishonchli matniy yoki leksikografik dalillar bilan tasdiqlanishi, birlikning fonetik va morfologik strukturasi, ma’nolarning tarixiy shakllanish jarayoni hamda ularning muayyan sinxron bosqichdagi real semantik funksiyasi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi aḍdādni aniqlashda faqat diaxron-etimologik mezonga tayanmasdan, sinxron semantik funksiyani ham diagnostik mezon sifatida qo‘llash bilan belgilanadi. Tarixan turli manbalardan kelib chiqqan ikki qarama-qarshi ma’no muayyan davrda ayni bir shaklda faol mavjud bo‘lib, til foydalanuvchisi uchun qarama-qarshi semantik talqin imkoniyatini yuzaga keltirsa, bu holat ham aḍdādning funksional tabiatini tavsiflashda hisobga olinishi lozim.

Taklif etilgan yondashuv mumtoz arab leksikografiyasidagi aḍdād korpusini qayta ko‘rib chiqish, haqiqiy qarama-qarshi ma’noli birliklarni shubhali yoki sun’iy talqinlardan ajratish hamda aḍdād, enantiosemiya, polisemiya va omonimiya o‘rtasidagi nazariy chegaralarni aniqlashtirish uchun metodologik asos yaratadi. Kelgusida semantik, fonetik va derivatsion aḍdād turlarini alohida korpuslar asosida

o‘rganish ushbu hodisaning tarixiy taraqqiyoti va mumtoz arab tilidagi funksional xususiyatlarini yanada batafsil ochib berish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari aḍdād hodisasini o‘rganishda faqat alohida leksik birliklarni tavsiflash bilan cheklanmasdan, ularning matniy realizatsiyasi, tarixiy-semantik taraqqiyoti va boshqa somiy tillar bilan qiyosiy munosabatini birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, bir birlikning qarama-qarshi ma’nolari turli davr, dialekt yoki nutqiy vaziyatlarda qanday reallashishini aniqlash aḍdādning haqiqiy semantik tabiatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusidagi tadqiqotlarda mumtoz arab she’riyati, nasriy manbalar va tarixiy lug‘atlar asosida maxsus korpus yaratish, undagi qarama-qarshi ma’noli birliklarning qo‘llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini tizimli tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv aḍdād birliklarining faqat nazariy tasnifini emas, balki ularning real til tizimidagi funksional o‘rnini ham aniqroq belgilash imkonini beradi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari aḍdād hodisasini o‘rganishda faqat alohida leksik birliklarni tavsiflash bilan cheklanmasdan, ularning matniy realizatsiyasi, tarixiy-semantik taraqqiyoti va boshqa somiy tillar bilan qiyosiy munosabatini birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, bir birlikning qarama-qarshi ma’nolari turli davr, dialekt yoki nutqiy vaziyatlarda qanday reallashishini aniqlash aḍdādning haqiqiy semantik tabiatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusidagi tadqiqotlarda mumtoz arab she’riyati, nasriy manbalar va tarixiy lug‘atlar asosida maxsus korpus yaratish, undagi qarama-qarshi ma’noli birliklarning qo‘llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini tizimli tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Ḥātim al-Sijistānī, Sahl ibn Muḥammad. (1913). Kitāb al-aḍdād. In A.Haffner (Ed.), *Drei arabische Quellenwerke über die Aḍdād* (pp. 71–162). Beirut: Imprimerie Catholique.
2. Abu al-Ṭayyib al-Lughawī. (1963). *Al-aḍdād fī kalām al-ʿArab* (ʿIzzat Ḥasan, Ed.). Damascus: Maṭbūʿāt al-Majmaʿ al-ʿIlmī al-ʿArabī.
3. al-Aṣmaʿī, ʿAbd al-Malik ibn Qurayb. (1913). Kitāb al-aḍdād. In A.Haffner (Ed.), *Drei arabische Quellenwerke über die Aḍdād* (pp. 5–70). Beirut: Imprimerie Catholique.
4. al-Farazdaq, Hammām ibn Ghālib. (1960). *Dīwān al-Farazdaq*. Beirut: Dār Ṣādir.
5. al-Suyūṭī, Jalāl al-Dīn. (n.d.). *Al-Muzhir fī ʿulūm al-lugha wa-anwāʿihā* (M.Jad al-Mawlā, ʿA.al-Bajāwī, & M.Abū al-Faḍl Ibrāhīm, Eds.; 2 vols.). Cairo: Dār Iḥyāʾ al-Kutub al-ʿArabiyya.
6. Badawī, A. (1933). Al-Ziddān. *Dāʾirat al-Maʿārif al-Islāmiyya, 2*, 295–303.
7. Bloomfield, L. (1948). *Language*. New York, NY: Henry Holt.
8. Giese, F. (1894). *Untersuchungen über die Aḍdād*. Berlin: Verlag von S.Calvary & Co.
9. Gordis, R. (1938). Some effects of primitive thought on language. *The American Journal of Semitic Languages and Literatures, 55*, 270–284.
10. Haffner, A. (Ed.). (1913). *Drei arabische Quellenwerke über die Aḍdād mit Beiträgen von P.A. Salhani und einem spätarabischen Anhange*. Beirut: Imprimerie Catholique.
11. Ḥusayn, Muḥammad. (1971–1972). Al-aḍdād fī al-lugha. *Al-Lisān al-ʿArabī, 8*(1), 93–120; *9*(1), 100–117; *10*(1), 13–36.
12. Ibn al-Anbārī, Abū Bakr Muḥammad ibn al-Qāsim. (1960). *Kitāb al-aḍdād* (M.Abū al-Faḍl Ibrāhīm, Ed.). Kuwait: Dār al-Maṭbūʿāt wa-al-Nashr.

13. Ibn Fāris, Aḥmad ibn Fāris. (1969). *Muʿjam maqāyīs al-lugha* (2nd ed.; ʿA.M. Hārūn, Ed.). Cairo: al-Bāb al-Ḥalabī.
14. Ibn Manẓūr. (1981). *Lisān al-ʿArab* (6 vols.; ʿA.A. al-Kabīr, M.Ḥasab Allāh, & H.M. al-Shādhilī, Eds.). Cairo: Dār al-Maʿārif.
15. Ibn al-Sikkīt, Abū Yūsuf Yaʿqūb ibn Isḥāq. (1913). Kitāb al-aḍdād. In A.Haffner (Ed.), *Drei arabische Quellenwerke über die Aḍdād* (pp. 163–220). Beirut: Imprimerie Catholique.
16. Jabbour, S. (1967). Classification et explication des Aḍdād d'après le Kitāb al-Aḍdād d'Ibn al-Anbārī. In J.-P. Charnay (Ed.), *L'ambivalence dans la culture arabe* (pp. 65–80). Paris: Éditions Anthropos.
17. Justice, D. (1987). *The semantics of form in Arabic in the mirror of European languages*. Amsterdam: John Benjamins.
18. Kamol, R. (1972). *Al-taḍādd fī ḍawʾ al-lughāt al-sāmiyya*. Beirut: Jāmiʿat Bayrūt al-ʿArabiyya.
19. Cohen, D. (1967). L'homonymie des opposés, les Aḍdād: Aḍdād et ambiguïté linguistique en arabe. In J.-P. Charnay (Ed.), *L'ambivalence dans la culture arabe* (pp. 25–50). Paris: Éditions Anthropos.
20. Lane, E.W. (1863–1893/1984). *An Arabic-English lexicon*. Cambridge: The Islamic Texts Society.
21. Macdonald, J. (1963). The Arabic derived verb themes: A study in form and meaning. *The Islamic Quarterly, 7*, 96–116.
22. Marcus, D. (1980). Some antiphrastic euphemisms for a blind person in Akkadian and other Semitic languages. *Journal of the American Oriental Society, 100*(3), 307–310.
23. Moscati, S., Spitaler, A., Ullendorff, E., & von Soden, W. (1964). *An introduction to the comparative grammar of the Semitic languages: Phonology and morphology*. Wiesbaden: Otto Harrassowitz.
24. Nöldeke, T. (1910). *Neue Beiträge zur semitischen Sprachwissenschaft*. Strasbourg: Karl J. Trübner.
25. Palmer, F.R. (1977). *Semantics: A new outline*. Cambridge: Cambridge University Press.
26. Qutrub, Muḥammad ibn al-Mustanīr. (1931–1932). Kitāb al-aḍdād (H.Kofler, Ed.). *Islamica, 5*, 243–284.
27. Stern, G. (1964). *Meaning and change of meaning*. Bloomington, IN: Indiana University Press.
28. Ullmann, S. (1957). *The principles of semantics*. Glasgow: Jackson, Son & Co.
29. Waldron, R. A. (1979). *Sense and sense development*. London: André Deutsch.
30. Wright, W. (1979). *A grammar of the Arabic language* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

REFERENCES

1. Abu al-Ṭayyib al-Lughawī. (1963). *Antonyms in the speech of the Arabs* (ʿIzzat Ḥasan, Ed.). Damascus: Publications of the Arab Scientific Academy.
2. Abu Ḥātim al-Sijistānī, Sahl ibn Muḥammad. (1913). The book of antonyms. In A.Haffner (Ed.), *Three Arabic Source Works on Antonyms* (pp. 71–162). Beirut: Catholic Printing House.
3. al-Aṣmaʿī, ʿAbd al-Malik ibn Qurayb. (1913). The book of antonyms. In A.Haffner (Ed.), *Three Arabic Source Works on Antonyms* (pp. 5–70). Beirut: Catholic Printing House.
4. al-Farazdaq, Hammām ibn Ghālib. (1960). *The collected poems of al-Farazdaq*. Beirut: Ṣādir Publishing House.
5. al-Suyūṭī, Jalāl al-Dīn. (n.d.). *The brilliant work on the sciences of language and their various branches* (M.Jad al-Mawlā, ʿA.al-Bajāwī, & M.Abū al-Faḍl Ibrāhīm, Eds.; 2 vols.). Cairo: House for the Revival of Arabic Books.
6. Badawī, A. (1933). The two antonyms. *The Encyclopaedia of Islam, 2*, 295–303.
7. Bloomfield, L. (1948). *Language*. New York, NY: Henry Holt.

8. Cohen, D. (1967). The homonymy of opposites, antonyms: Antonyms and linguistic ambiguity in Arabic. In J.-P.Charnay (Ed.), *Ambivalence in Arab Culture* (pp. 25–50). Paris: Anthropos Publishing House.
9. Giese, F. (1894). *Studies on antonyms*. Berlin: S.Calvary & Co. Publishing House.
10. Gordis, R. (1938). Some effects of primitive thought on language. *The American Journal of Semitic Languages and Literatures, 55*, 270–284.
11. Haffner, A. (Ed.). (1913). *Three arabic source works on antonyms, with contributions by P.A.Salhani and a late Arabic appendix*. Beirut: Catholic Printing House.
12. Ḥusayn, Muḥammad. (1971–1972). Antonyms in the Arabic language. *The Arabic Tongue, 8*(1), 93–120; *9*(1), 100–117; *10*(1), 13–36.
13. Ibn al-Anbārī, Abū Bakr Muḥammad ibn al-Qāsim. (1960). *The book of antonyms* (M.Abū al-Faḍl Ibrāhīm, Ed.). Kuwait: Publishing and Printing House.
14. Ibn al-Sikkīt, Abū Yūsuf Yaʿqūb ibn Isḥāq. (1913). The book of antonyms. In A.Haffner (Ed.), *Three Arabic Source Works on Antonyms* (pp. 163–220). Beirut: Catholic Printing House.
15. Ibn Fāris, Aḥmad ibn Fāris. (1969). *Dictionary of the criteria of language* (2nd ed.; ʿA.M.Hārūn, Ed.). Cairo: al-Bāb al-Ḥalabī Publishing House.
16. Ibn Manẓūr. (1981). *The Arabic tongue* (6 vols.; ʿA.A.al-Kabīr, M.Ḥasab Allāh, & H.M.al-Shādhilī, Eds.). Cairo: Dār al-Maʿārif Publishing House.
17. Jabbour, S. (1967). Classification and explanation of antonyms according to Ibn al-Anbārī's *Book of Antonyms*. In J.-P.Charnay (Ed.), *Ambivalence in Arab Culture* (pp. 65–80). Paris: Anthropos Publishing House.
18. Justice, D. (1987). *The semantics of form in Arabic in the mirror of European languages*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
19. Kamol, R. (1972). *Antonymy in the light of the semitic languages*. Beirut: Arab University of Beirut Publishing House.
20. Lane, E.W. (1863–1893/1984). *An Arabic-English lexicon*. Cambridge: The Islamic Texts Society.
21. Macdonald, J. (1963). The Arabic derived verb themes: A study in form and meaning. *The Islamic Quarterly, 7*, 96–116.
22. Marcus, D. (1980). Some antiphrastic euphemisms for a blind person in Akkadian and other Semitic languages. *Journal of the American Oriental Society, 100*(3), 307–310.
23. Moscati, S., Spitaler, A., Ullendorff, E., & von Soden, W. (1964). *An introduction to the comparative grammar of the semitic languages: Phonology and morphology*. Wiesbaden: Otto Harrassowitz Publishing House.
24. Nöldeke, T. (1910). *New contributions to semitic linguistics*. Strasbourg: Karl J.Trübner Publishing House.
25. Palmer, F.R. (1977). *Semantics: A new outline*. Cambridge: Cambridge University Press.
26. Qutrub, Muḥammad ibn al-Mustanīr. (1931–1932). The book of antonyms (H.Kofler, Ed.). *Islamica, 5*, 243–284.
27. Stern, G. (1964). *Meaning and change of meaning*. Bloomington, IN: Indiana University Press.
28. Ullmann, S. (1957). *The principles of semantics*. Glasgow: Jackson, Son & Co. Publishing House.
29. Waldron, R.A. (1979). *Sense and sense development*. London: André Deutsch Publishing House.
30. Wright, W. (1979). *A grammar of the Arabic language* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.